

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Maxmutaliyev	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari.....	111
G.S.Sidiqova	
Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikasiyasi	118
X.X.Xaydaraliyev	
O'quv mashg'uotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish.....	123
R.A.Hamroqulov	
Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'uotlarni tashkillash	128
E.I.Allomov	
Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlar.....	134
T.A.Eshimov	
Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili.....	141
Sh.M.Robilova	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi	147
Q.M.Xakimov	
Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari.....	150
Sh.V.Djalalov	
O'rta yoshdagagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqaqalashtirilgan tizim asosida.....	155
X.M.Sotvaldiyeva	
Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	159
S.I.Quziyev	
Ingliz tilini o'qitishda smart ta'limgan texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari	162
N.K.Ergasheva	
Methodology and outcomes of english language teaching	168
M.Axmedova	
Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materialarning roli.....	172
G.Astonova	
Germaniyada ta'limgan tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari.....	176
G.R.Astonova, M.M.Kaharova	
Germaniya va O'zbekiston ta'limgan tizimida o'xshash va farqli jihatlar	179
N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova	
Nutq o'stirishning metodik usullari	183
M.S.Ro'ziboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar	188
N.N.Nabiyeva	
Triz texnologiyasi vositasida ta'limgan oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati	193
D.I.Asqarova	
Oliy ta'limgan tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar	197
D.T.Yuldasheva	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari	202
Y.A.Mirzaboyev	
Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi	206
R.Sh.Sharofutdinova	
Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari	210



УО'К: 81-139

INGLIZ TILINI O'QITISHDA SMART TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI VIRTUAL TURIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВИРТУАЛЬНОГО ТУРИЗМА ЧЕРЕЗ УМНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.

PEDAGOGICAL METHODS OF IMPROVING VIRTUAL TOURISM THROUGH SMART EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH TEACHING.

Quziyev Sarvarbek Ilmuddinovich 

Farg'onan davlat universiteti, Chet tillar fakulteti Ingliz filologiyasi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy ko'nigmalar orqali milliy virtual turizmni ingliz tili mashg'ulotlarda takomillashtirish uchun SMART ta'lif texnologiyalaridan foydalananish, ta'lif jarayonini yanada interaktiv, intuitiv va individuallashtirilgan holda SMART texnologiyalari interaktiv content ya'ni, virtual turistik joylarga bog'liq bo'lgan interaktiv darslar va materiallar, 3D modellar, video turilar orqali virtual turizmni takomillashtirish hamda ingliz tilini virtual turizm orqali o'qitish SMART texnologiyalari yordamida talabalar bilimlar mustahkamlash yo'llari berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается использование образовательных технологий SMART для совершенствования национального виртуального туризма при обучении английскому языку посредством профессиональных навыков, что делает образовательный процесс более интерактивным, интуитивным и индивидуализированным. Методы совершенствования виртуального туризма посредством интерактивных уроков, материалов, 3D-моделей и др. предусмотрены видеотуры, а также обучение английскому языку посредством виртуального туризма с помощью технологий SMART.

Abstract

This article presents ways to use SMART educational technologies to improve national virtual tourism in English language classes through professional skills, to make the educational process more interactive, intuitive and individualized, to improve virtual tourism through SMART technologies interactive content (i.e. interactive lessons related to virtual tourist attractions), materials, 3D models and video tours, and to strengthen students' knowledge through teaching English through virtual tourism.

Kalit so'zlar: SMART texnologiyalar, virtual haqiqat, Kengaytirilgan haqiqat, VR, AR, 3D modellar.

Ключевые слова: SMART-технологии, виртуальная реальность, Дополненная реальность, VR, AR, 3D-модели.

Key words: SMART technologies, virtual reality, Augmented Reality, VR, AR, 3D models.

KIRISH

Zamonaviy ta'lilda barcha sohada bo'lganidek, turizmni rivojlantirish sohasida ham ingliz tiliga bo'lgan talab yuqoridir Jahan tajribasidan bilamizki, ingliz tili xalqaro til bo'libgina qolmasdan, jahon aholisining yarmi uchun bu til ona tili hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, eng keng qamrovli va dunyo bo'ylab eng ko'r foydalilanligan til bu ingliz tilidir. Dunyoning yirik tarmoqlari, mamlakatlarni jahon maydoniga tanitadiga iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan va texnika, zamonaviy sport, xalqaro turizm kabi ko'pgina sohalar rivoji bevosita ingliz tili orqali kechadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda turizm ta'limi va ingliz tilini kasbiy ko'nigmalar orqali o'qitish, milliy turizmni rivojlantirishda SMART ta'lif texnologiyalarini orqali kasbiy va lingvistik ko'nikmalarni shakllantirish borasida yangi yondashuvlar olib borgan olimlardan G.Niyazova, D.Xasanova, S.Shodmonov, U.Turaeva, xorijiy tillarning o'qitishning metodik masalalari bo'yicha J.Jalolov, G.Maxkamova, M.Kadirova, I.Iminaxunova, G.Obidova, kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

MDH mamlakatlari olimlardan T.Koval, A.Khamidovalar, V.Matvenko, S.K, N.Tsvetkova, A.Smirnov, S.Kropinovlar turizm ta'limidagi metodologik yondashuvlar va kasbiy tayyorgarlik

PEDACOGIKA

masalalari, madaniyat va turizm o'tasidagi aloqalar, turizm sohasi va til o'qitishni integratsiyalash, turizm bilan bog'liq madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Gid-hamrohligi yo'nalishi talabalar eng avvalo Xalqaro turizm tendensiyalarini o'rganishni talab etadi. Talabalarga turizmning global rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qilishni o'rgatish muhimdir. Bunda ekoturizm, madaniy turizm, sog'lomlashtirish turizmi kabi sohalarning ahamiyatini tushuntirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birgalikda, mahalliy turizm imkoniyatlarini rivojlantrishni, talabalar o'z mamlakatlarining noyob turistik obyektlarini tahlil qilish va ulardan qanday foydalanish mumkinligini o'rganishlari kerakligi ham talab etiladi. Milliy qadriyatlar va merosni ommalashtirish, o'ziga xos turizm yo'nalishlarini yaratish, masalan, milliy taomlar, urf-odatlar yoki xalq hunarmandchiligi bilan bog'liq ekskursiyalarni rivojlantrish. Turizmni rivojlantrishda raqamli texnologiyalar va virtual turizm imkoniyatlaridan foydalanish talabalar uchun muhim yo'nalishdir. Bunga onlayn ekskursiyalar, 3D turlar, virtual reallik yordamida sayohatlar kiradi.

Talabalarni turizm xizmatlarini o'zlashtirishlari, individual turlar va xizmatlarni yaratish bo'yicha o'rgatish, bu ayniqsa, turli tillarda xizmat ko'rsatish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu yo'nalishlar orqali talabalar turizm sohasidagi ilg'or tendensiyalarni o'zlashtiradilar va kelgusida bu sohani rivojlantrishda samarali ishtirok eta oladilar.

Gid-hamrohligi yo'nalishi mutaxassislari bilishi kerak bo'lgan asosiy talablardan yana biri, ekskursiya marshrutida kiritilishi mumkin bo'lgan turistik obyektlar, diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy meroslarni aniqlay bilishi, ekskursiyada qatnashuvchilar kim bo'lishini aniqlash, ularning qiziqishlari va ehtiyojarini tahlil qila olishi kerak bo'ladi. Hududdagi infratuzilma, yo'llar, transport vositalari, mehmonxona va ovqatlanish maskanlari, yo'lovchilar uchun qulayliklar kabilarni baholay olishi, marshrut dasturini ishlab chiqishishi va ekskursiyaning asosiy yo'nalishlarini, kirish va chiqish nuqtalarini belgilashni bilishlari lozim bo'ladi. Shu bilan birgalikda, vaqtini to'g'ri taqsimlash ya'ni, har bir obyektga ajratiladigan vaqtini, transportda harakatlanish vaqtini, tushlik va dam olish vaqtlarini rejalashtirish o'ta muhim hisoblanadi.

Texnologik hujjatlar tayyorlashga to'xtaladigan bo'lsak, ekskursiyaning to'liq dasturi, obyektlar ro'yxati, har bir obyekt haqida qisqacha ma'lumot, harakat vaqtini va masofalarni hisobga olishlari kerak bo'ladi. Ekskursiya dasturini amalga oshirishda, gidlar uchun maxsus o'quv kurslari, marshrut va texnologik hujjatlar bilan tanishtirish, ekskursiya dasturini targ'ib qilish, marketing kompaniyalari tashkil etish, onlayn platformalar orqali sotishni yo'lda qo'yish, va albatta, ekskursiyalar davomida qatnashchilarning fikrlarini yig'ish, xizmat sifatini yaxshilash uchun tahlil va monitoring o'tkazishni amalga oshirish lozim bo'ladi. Shunday qilib, marshrutlarni rejalashtirish va hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni turli bosqichlarda aniq va puxta amalga oshirilishi kerak, bu esa ekskursiyaning muvaffaqiyati va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Kasbiy ko'nikmalar orqali milliy virtual turizmni ingliz tili mashg'ulotlarida takomillashtirish uchun biz SMART ta'lif texnologiyalaridan foydalanishga qaror qildik. Ta'lif jarayonini yanada interaktiv, intuitiv va individuallashtirilgan holatga olib keladigan zamонавиу texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladigan SMART texnologiyalari interaktiv content ya'ni, virtual turistik joylarga bog'liq bo'lgan interaktiv darslar va materiallar orqali masalan, 3D modellar, video turlar orqali virtual turizmni takomillashtirishda imkoniyatlar beradi. Ingliz tilini virtual turizm orqali o'qitish SMART texnologiyalari yordamida quyidagi afzallikkarga ega bo'ladilar: talabalar sayohatlar, mehmonxonalar va turli joylar haqida muloqot qilish orqali real hayotda qo'llaniladigan til ko'nikmalarini rivojlantradir. Talabalar materiallarni turli usullar bilan o'rganishi natijasida bilimlar mustahkamlanadi. Matn, audio, video va 3D texnologiyalarini birlashtirish orqali til o'rganish ko'nikmasini rivojlantradi. Ushbu yondashuv milliy virtual turizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shishi bilan bir qatorda, ingliz tilini o'rganish jarayonini ham sezilarli darajada osonlashtiradi.

Ingliz tilini o'qitishda milliy virtual turizmni, milliy madaniyatni SMART ta'lif texnologiyalari orqali rivojlantrish talabalarga nafaqat ingliz tilini o'rgatishni, shu bilan birgalikda o'zlarining milliy madaniy merosini chuqr tushunishni va uni xalqaro darajaga olib chiqish uchun maqsad qilingan ta'lif yondashuvlaridir. Ushbu pedagogik yondashuvlar zamонавиу texnologiyalarni qo'llagan holda virtual sayohatlar va o'qitish usullarini birgalikda olib borishga zamin yaratadi.

Ma'lumki, zamонавиу ta'lifda tillarni o'qitish uchun hozirda ommalashib borayotgan zamонавиу SMART ta'lif usullari mavjuddir, har bir SMART ta'lif usullari talabaning maqsadlari va o'qish tarziga qarab tanlanadi. Ushbu tadqiqotimizdag'i gid-hamrohligi va tarjimonlik faoliyati

yo'nalishidagi talabalarni inglez tilini o'qitishdagi kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Shu sababli, biz turizm yo'nalishidagi talabalarni o'z kasbiy sohalaridan kelib chiqqan holda zamонави о'qитиш usullarini taklif qilishga qaror qildik. Talabalarning bilim olish qobiliyatları va iqtidorları turlicha bo'lganligi sabab, har qaysi talaba o'ziga oson bo'lgan usul orqali til o'rganadi. Masalan, til o'rganishdagi eng mashhur usullarni tahlil qiladigan bo'lsak, **Grammar-Translation Method**, ushu usulda grammatika qoidalarini o'rganish va tarjima qilish asosiy rol o'ynaydi. Bu usul klassik matnlarni tahlil qilish orqali talabalarning grammatik bilimlarini oshiradi. Bu usul o'quvchilarga til grammatikasi qoidalarini mukammal o'rganishga imkon beradi. Har bir darsda grammatik qoidalar aniq va bat afsil tushuntiriladi, bu esa o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlaydi. Grammatika va sintaksisni o'rganish orqali ular jumllalarni tahlil qilish va turli murakkab konstruktsiyalarni tushunishni o'rganadilar. Grammatik-tarjima usuli ko'pincha adabiy matnlar bilan ishlashga asoslangan bo'lib, o'quvchilarga o'rganilayotgan til madaniyati va tarixi bilan tanishish imkonini beradi. Ushbu usul yordamida talabalar yana, ikki til va madaniyat o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ayniqsa, turizm yo'nalishidagi talabalarga o'zga millat madaniyati va tarihini o'rganishga imkoniyat yaratadi. Audiolingual usul (**Audiolingual Method**) bu usulda tinglash va gapirishga ko'proq urg'u beriladi. Talabalar oddiy dialoglarni qayta-qayta tinglab, so'ngra ulardan foydalanib gapirishni mashq qilishadi. Kommunikativ usul (**Communicative Approach**) o'quvchilar amaliy va kundalik muloqot uchun tilni o'rganishga yo'naltirilgan. O'quvchilar real hayotdagi vaziyatlarda foydalanish uchun til qobiliyatlarini rivojlantirishadi. To'g'ridan-to'g'ri usulida (**Direct Method**) tarjima qilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri inglez tilida gaplashish va o'qitish amalga oshiriladi. Matnlar, dialoglar, va tasvirlar yordamida yangi so'zlar va iboralar o'rgatiladi. Interfaol usul (**Interactive Method**) bu usulda o'quvchilar guruhlarda ishlash, bahs-munozaralar o'tkazish, o'yinlar o'ynash orqali tilni o'rganadilar. Bu usul tilni amalda qo'llash imkoniyatini oshiradi. Hozirgi kundagi aktual ta'lrim usullaridan SMART ta'lrim texnologiyalari bo'lib, ushu ta'lrim orqali talabalar inglez tilini onlayn platformalarda, interaktiv darslar, videolar, va turli ilovalar orqali o'rganishlari mumkin bo'ladi. Ushbu yuqorida keltirib o'tilgan usullardan biri yoki bir nechtasini kombinatsiyasini tanlab, talabalar o'z ehtiyojlariaga mos keladigan eng samarali usulni aniqlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugun biz tadqiq qilayotgan inglez tilini o'qitishda kasbiy ko'nikmalar orqali virtual turizmi yanada rivojlantirish nomli tadqiqot ishimiz uchun zarur bo'ladigan pedagogik usullarni tahlil qilib chiqamiz. Milliy virtual turizmni rivojlantirishda inglez tilini o'qitish uchun bir qator pedagogik usullarni qo'llash mumkin. Quyida ba'zi asosiy usullar keltirib o'tamiz:

Interaktiv o'qitish ya'ni talabalarni faol ishtirok etishga undash. Masalan, virtual ekskursiyalar o'tkazish, onlayn muhokamalar va rolli o'yinlar orqali virtual turizmni inglez tilida rivojlantirishga erishish mumkin bo'ladi. Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etishlari, savollar berishlari va fikrlarini bildirishlari mumkin bo'ladi. Bu ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv usullardan masalan, rolli o'yinlar, simulyatsiyalar darslarni qiziqarli o'tishiga sabab bo'ladi, bu esa talabalarda bilim olishiga motivatsiya beradi. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish virtual turizm kontekstida talabalar real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali amaliy ko'nikmalarni o'zlashtiradilar, masalan, mehmonxona rezervatsiyasi yoki sayohatni rejalashtirish kabi. Guruh ishlari orqali talabalar jamoada ishslash, fikr almashtish va muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Interfaol o'qitish usuli madaniy kontekstni o'rganishga yordam beradi. Talabalar turli mamlakatlar va ularning turizm imkoniyatlari haqida bilib olishadi. Virtual turizmning interaktiv elementlaridan masalan, 3D ekskursiyalar inglez tilini o'rganishni yanada qiziqarli va zamонави yondashuv asosida o'rganishga muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, interaktiv o'qitish usuli talabalarни inglez tilini o'rganishga yanada jalb qiladi va virtual turizm sohasida zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Misol uchun, **vizuallashgan materiallar** video, fotosuratlar va grafikalar yordamida mavzularni yanada qiziqarli va tushunarli qilish, virtual turizm joylari haqida video taqdimotlar tayyorlash, talabalar virtual turizm sohasida inglez tilida muloqot qilish ko'nikmalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Bu masalan, mehmonxona rezervatsiyasi, sayohat rejalashtirish yoki sayohat davomida muammolarni hal qilishga yordam beradi. Vizuallashgan materiallar rasmlar, videolar, interaktiv xaritalar orqali talabalar turli mamlakatlar va ularning madaniyati haqida ma'lumot olishadi. Bu madaniyatlari tushunishni va inglez tilini o'rganishni yanada qiziqarli qiladi. Vizuallashgan materiallar darslarni qiziqarli bo'lishiga, talabalar virtual sayohat qildirib, yangi joylarni kashf etish orqali motivatsiya olishga erishadilar.

PEDAGOGIKA

Vizuallashgan materiallar murakkab tushunchalarini tushunishni osonlashtiradi. Talabalar ko'rish va eshitish orqali bilimlarni yanada yaxshiroq o'zlashtiradilar. Masalan quyida vizuallashgan materiallar bilan ingliz tilini o'qitishga ba'zi usullarni taklif qildik:

1. Virtual Tour Descriptions. (Virtual tur tavsiflari)

Mashq: Talabalar mashhur diqqatga sazovor joyni masalan, Eyfel minorasini qisqa virtual sayohatini tomosha qilishadi. Ko'rgandan so'ng, ular ko'rganlarini, shu jumladan joylashuvi, tarixi va asosiy xususiyatlari haqida tafsilotlarni umumlashtiradigan tavsiflovchi insho yozadilar.

Ko'rsatma: "Eyfel minorasi virtual sayohatini tomosha qiling. Belgilangan joyni, shu jumladan uning tarixi, joylashuvi va siz o'rgangan har qanday qiziqarli faktlarni tavsiflovchi 150 so'zli insho yozing."

Vizual materiallar: skrinshotlar yoki virtual sayohatdan olingan rasmlar, Eyfel minorasi joylashgan joyni ko'rsatadigan Parij xaritasi.

2. Virtual Travel Itinerary (Virtual sayohat marshruti)

Mashq: Talabalar o'zları tanlagan shaharga virtual sayohat qilish uchun 3 kunlik sayohat marshrutini yaratadilar. Ular tadbirlarni, tashrif buyuradigan joylarni va har bir kun uchun vaqtini o'z ichiga olishi kerak.

Ko'rsatma: "Tokioga 3 kunlik virtual sayohatni rejalashtiring. Tarixiy joylar, muzeylar va mahalliy restoranlar kabi har kuni tashrif buyuradigan joylar bilan marshrutni yarating. Kunning vaqtini va siz ishtiroy etadigan har qanday madaniy tadbirlarni kriting."

Vizual materiallar: marshrut shablonining namunasi, Tokioning diqqatga sazovor joylari tasvirlari va Tokio xaritasi.

3. Virtual Tourist Quiz (Virtual Sayyoqlik Viktorinasi)

Mashq: Talabalar virtual sayohat asosida viktorinani bajaradilar. Viktorinada ekskursiya haqida ko'p tanlovlari va qisqa javobli savollar mavjud bo'lishi kerak.

Ko'rsatma: "Rimdag'i Kolizey virtual sayohati asosida viktorinani bajaring. Kolizeyning tarixi, arxitekturasi va ahamiyati haqidagi savollarga javob bering."

Vizual materiallar: Kolizey tasvirlari bilan viktorina, ekskursiya davomida ta'kidlangan asosiy fikrlar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ushbu usullardagi mashshqlar ingliz tilini o'rganishni virtual turizmni o'rganish bilan birlashtirib, o'quvchilarga yozish, gapirish va tushunish ko'nikmalarini mashq qilishda vizual ravishda material bilan shug'ullanishga imkon beradi.

Ingliz tilini o'qitishda milliy virtual turizmni innovatsion yondashuv asosida o'qitish uchun, avvalo, turizm bilan bog'liq kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Bu jarayonda o'quvchilarni real dunyo vaziyatlari tayyorlaydigan va ularga virtual muhitda o'z malakalarini qo'llash imkonini beradigan texnologik vositalar va metodlarni qo'llash muhimdir. Masalan, virtual ekskursiyalar, interaktiv simulyatsiyalar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilarni turizm sohasidagi terminologiya, muloqot usullari, mijozlar bilan ishlash madaniyati va boshqa muhim ko'nikmalar bilan tanishtirish mumkin. Bu usullar nafaqat ingliz tilini o'rganishni, balki ularni o'z sohalarida professional tayyorgarlikni ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvda, shuningdek, yuqoridaq bobimizda keltirib o'tgan virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalaridan foydalanish ham samarali bo'lishi mumkin. Bu texnologiyalar o'quvchilarni an'anaviy sinf xonalaridan tashqariga olib chiqib, ularga real turizm joylarini virtual tarzda o'rganish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, milliy madaniyat va diqqatga sazovor joylarni o'z ichiga olgan o'quv materiallarini yaratish va ushbu materiallar asosida interaktiv mashg'ulotlarni olib borish o'quvchilarning nafaqat til, balki milliy turizm haqidagi bilimlarni ham oshiradi. Milliy virtual turizmni innovatsion yondashuv orqali o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan mashqlar turli xil bo'lishi mumkin. Quyida bir nechta mashqlarni keltirib o'tamiz:

1. Virtual ekskursiyalar: O'quvchilarni virtual reallik vositalaridan foydalanib, milliy diqqatga sazovor joylarga ekskursiya qilishga jalb qilish. Bu ekskursiyalar davomida ularning eshitish, tushunish va mulohaza qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Masalan, o'quvchilarga biror joyga borishdan oldin yoki ekskursiya paytida ingliz tilida eshitganlarini qayta hikoya qilish topshirig'i beriladi.

2. Rolli o'yinlar (Role-plays): O'quvchilar turli vaziyatlarda turizm agenti va mijozlar rolida bo'lib, ingliz tilida muloqot qilishadi. Bu mashqlar ularga kasbiy muhitda muloqot qilishda ishonch

hosil qilish va turli madaniyatlar bilan bog'liq tillararo muloqot ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

3. Interaktiv videolar tahlili: Talabalarga milliy turizm joylari haqida ingliz tilida videolar taqdim etiladi. Ular videolarni tomosha qilib, keyin tushunganlarini yozib yoki guruhda muhokama qilishadi. Bu mashq eshitish va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Yuqoridagi mashqlar o'quvchilarning ingliz tilidagi bilimlarini milliy turizm kontekstida rivojlantirishga yordam beradi. Milliy virtual turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun ingliz tilida muloqot qilish zaruriyati kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali talabalar kelajakdagi ish faoliyatlariga tayyorlanadilar.

Gid-hamrohligi yo'nalishidagi talabalar guruhlarda ishlash orqali bir-birlari bilan fikr almashishlari ham mumkin, bu esa ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, guruhda (group discussion) birqalikda ishlash uchun quyidagi savollarni muhokama qilishlari mumkin:

"What technologies are currently transforming the virtual tourism industry?" (Hozirda virtual turizm sanoatini qanday texnologiyalar o'zgartirmoqda?)

"How can we enhance user experience through innovative tools?"

(Innovatsion vositalar yordamida foydalanuvchi tajribasini qanday oshirishimiz mumkin?)

Dars jarayonida yana ushbu usulni ham taklif qilamiz: Talabalar dars jarayonida taqdimot tayyorlaslari kerak bo'ladi. Har bir jamoa a'zosi virtual turizmnинг ma'lum bir aspekti masalan, marketing strategiyalari, mijozlar tajribasi bo'yicha qisqa taqdimot tayyorlaydilar. Misol: - "Today, I will present the impact of social media on virtual tourism marketing."

Yuqorida ko'rsatilgan usullar jamoaviy ish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, milliy virtual turizm sohasida ingliz tilida samarali muloqot qilish imkoniyatini oshiradi. Virtual turizm sohasida talabalar o'zaro fikr almashish va tajribalarini baham ko'rish orqali tilni yanada yaxshi o'zlashtiradilar. Virtual turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun ingliz tilida muloqot qilish zaruriyati, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali talabalar kelajakdagi ish faoliyatlariga tayyorlashdan iboratdir. Yuqorida keltirib o'tilgan mashqlar milliy virtual turizm sohasida kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirishga yordam beradi va ingliz tilida professional muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Umuman olganda, ingliz tilini kasbiy ko'nikmalar orqali milliy virtual turizm kontekstida vizuallashgan materiallar bilan o'rganish, SMART ta'lrim texnologiyalari talabalarni zamonaviy talablar va kadrlar yetishtirib chiqarish bo'yicha zamon talablariga mos ravishda tayyorlashda muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

XULOSA

Xulosa o'mida shuni aytishimiz mumkinki, SMART texnologiyalari yordamida ta'lim jarayonini o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa virtual turizm asosida ingliz tilini o'rganishda har bir o'quvchiga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni ta'minlaydi. SMART texnologiyalari o'qituvchilar va talabalarga virtual turizmnı o'rganish uchun raqamlı platformalar va onlayn resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bunday vositalar ingliz tilini o'rganish jarayonida jonli muloqot va virtual sayohatlar orqali o'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlanadir. Shu bilan birqalikda, SMART ta'lrim texnologiyalari yordamida o'quvchilar virtual reallik va ko'rgazmali vositalar orqali tilni yanada samarali o'rganishlari mumkin. Virtual turizmnинг tasviri resurslari til va madaniy ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Il'middinovich, K. S. (2022). Integrating 21st Century Skills into Teaching Medical Terminology. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 9, 114-117.
- F.F.Nah "Virtual Reality and Augmented Reality in Tourism: Enhancing Experiences with Technology", 2016 yil , AQSh
- O.V. Shakina "Virtual turizmnинг rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarri", 2017 yil, Rossiya
- Il'middinovich, K. S. (2021). The methodologies of learning english vocabulary among foreign language learners. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 501-505.
- Il'middinovich, K. S. (2020). Methods Of Teaching English To Young Learners. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(11), 65-69.
- Sarvarbek Il'middinovich Kuziev MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES // Academic research in educational sciences. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/modern-methods-of-teaching-english-language-at-medical-universities> (дата обращения: 10.05.2023).

PEDAGOGIKA

7. Kuziev, S. (2022). AT ENGLISH CLASSES USING APPROACHES AND METHODS OF ON TEACHING SPECIAL TERMINOLOGY IN MEDICAL UNIVERSITIES. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 265-269.